

**O'ZBEKISTON TANLAGAN HUQUQ OILASI ROMAN-GERMAN
OILASI. JAHON HUQUQ OILASI BILAN SOLISHTIRMA****Musurmonova Xolida Alisherovna**Termiz Pedagogika Instituti Milliy goya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nlishi

1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada davlatimiz tanlagan huquq oilasida mavjud yozilgan kodekslarning borligi bilan ajraladi. Boshq huquq oilalariga nisbatan shaxslarga bog'liq bo'lmaydi. Bu huquq oilasini tanlagan davlatlarning deyarli barchasida yozma konstitutsiyalar mavjud. Bu davlatlarda oddiy qonunlar konstitutsiyaligini sud orqali nazorat qilish asosida amalga oshirishda roman-german oilasida qonun chiqarish amaliyoti 3 xil ko'rinishda –kodekslar,maxsus qonunlar,normalar to'plami ajratib ko'rsatadi.Bu oilaga kiruvchi davlatlar fuqarolik ,jinoyat va ma'muriy kodekslar qabul qiladi.Roman-german oilasida sud amaliyoti ancha muammoli hisoblanadi.Mamlakatimiz tanlagan huquq oilasi o'zbekiston uchun ancha qulay oiladir.Jahon huquq oilalari ko'p va davlatlar o'z mentaliteti asosida tanlov qilishadi.

ANNOTATION In this article the family of law chosen in our country is distinguished by the existence of existing written codes. Other law it will not depend on individuals in realition to families. Almost all the countries that have written constitutions .In these countries ,ordinary laws are implemented on the constitutionality .The law-making practice in the Roman-germic family is divided into 3 differentforms codes, special laws, and set of norms show.The countries belonging to the family have adopted civil criminal and anministrative codes.The Roman-germanic family is considered very problemtic in judicial practice.The family of law

chosen by our country is a very convenient family for Uzbekistan. There families in the world and countries make choices based on their mentality.

Tayanch so'zlar ;roman-german,kodeks,totalitar,sud presenedenti,shariat,kastavarna ,skandinaviya.

Keywords; Roman-germanic, codes, totalitarian, court present, sharia, caste varna, Scandinavia.

Mamlakatimiz mustaqil bo'lgan buyon tanlagan huquqiy oilasi bu roman-german. Tarixan bu oilada asosan yevropa davlatlarida shakllangan bo'lib, muqaddas diniy va mahalliy a'nanalari asosida kelgan tizimlarni o'z ichiga oladi. Asosan 12-16 asrlarda italyan, fransuz, nemis universitetlarida qonun sifatida to'plangan. Keyinchalik yevropada shakllanib Rim huquqini vujudga keltiradi. Yozma tarzdagi huquqning mavjudligi, huquq manbalarning yagona tizimi, uning ommaviy va xususiy huquqqa bo'linishi, huquq tizimining tarmoqqa ajratilganligi roman-german huquqiy oilasining o'ziga xos belgilaridir. Turli Yevropa mamlakatlari huquqiy oilasiga mansubligi milliy huquqiy tizimlar o'rtasida muayyan farqlarni istisno etmaydi. CHunonchi birinchi tomondan fransuz huquqi, ikkinchi tomondan german huquqiy guruhining ajralishini olib kelgan roman guruhiga Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Italiya, Portugaliya, Ispaniya, german guruhiga Germaniya bilan birga Avstriya, SHvetsariya va boshqa ba'zi mamlakatlar kiradi. O'zbekiston ham shu oilaning bir bo'laki desak ham bo'ladi. Yildan-yilga rivojlanib borayotgan mamlakatimiz huquq tizimi vz unga bo'lgan qarashlar davomiy ravishda o'zgarib boryapti. Huquqiy tizimi islohotlarini kopdan-ko'p misol qilsak bo'ladi. So'nggi yilda huquqmizning poydevori konstitutsiyamiz ham yangilanadi. Bizning tanlovimizda ko'ringan roman-german oilasida qonunni ustuvor hisoblaydi. Bugungi kunda jamiyatning o'zi xohlaydiki huquqiy qonunlar va qarorlar ularni himoya qilishini. Zamonaviy davr qurar ekanmiz jamiyatning o'zi inkor etadi yakka shaxslarning qarorlarini, turli huquqiy oilarni tahlil qilar ekanmiz misol qilar ekanmiz ingliz-amerika huquqiy oilasi kodekslar bo'lmay, sudyalar tomonidan ularning qarorlarida tariflangan normalar huquqning asosini tashkil qiladi. Angliya va Amerika kabi davlat larda asrlar davomida shakllangan ko'ra Qirollik sudi qarorlari keyinchalik hududiy sudlar ham amal qiladi.

Bu davlatlarda ko'pgina muammolarni sud qarori asosida hal etiladi. Mazkur oilada sud himoyasi vosiyasi huquqdan muhimroq degn g'oya yillar davomida shakllandi. Bu huquq oilasining hududiy suddan yuqoriroq sudga murojaat qilish qiyinroq hisoblanadi. Bu huquq oilasida ommaviy va xususiy huquqlarga bo'linmasligi biln boshqa oilardan farq qiladi. Turli inqiloblar ro'y berishi fonida AQSH da amerika huquqini vujudga keltiradi. Ingliz huquqidan qisman bo'lsa ham yiroqlashdi ammo roman-german huquqi o'tmadi. Keyinchalik AQSH da xuddi ingliz larga o'xshash present huquqi ya'ni oldingi tizimdan ozroq farq qildi. Xuddi ingliz huquqshunoslari kabi Amerika huquqshunosi uchun ham sud amaliyoti eng yaxshi huquq bo'lib qolaverdi. SHunday ekan ingliz-amerika oilasida shu davlatlarda shaxslarga bergan huquqiy erkinliklari ko'proq hisobga olinadi. SHunday ekan ingliz-amerika oilasi shu davlatlarda shxslarga bergan huquqiy erkinliklari ko'proq hisobga olinadi. SHunday oilalar borki ular qisman Yevropa huquqiy oilalari bir jihatdan ingliz huquqiy oilasiga ham yaqin bu- oila Lotin Amerika huquq oilasi hisoblandi. Bu davlatlarda ham kodekslashtirish yuqori o'rinda turadi mustaqillikdan keyin ko'pgina Lotin merika davlatlari fransuz va german huquqiy oilasi shakllandi deb ayta olamiz. Ayrim huquqiy oilalari misol Skandinaviya davlatlar tanlovida keltirilgan har ikkalasini mujjasamlashtiradi. Daniya va Islandiya kabi davlatlar kiradi. Ularda ham tizim deyarli farqi ham hisoblanadi. Ammo ko'proq hududiy jihatdan Germaniyag yaqin hisoblangani uchun roman-german huquq oilasi yuqorida turadi. Ayrim vaziyatlar taqazo etganda ingliz huquqiy oilasidan ham foydalanadi. SHunday tizimlar jamiyatlar borki ularni shariatsiz tasavvur etib bo'lmaydi, ularda asosan ko'proq o'rinda shariat yuqoriroq bo'lishi kerak deganda g'oyalar o'rin tutadi. Bu huquq oilasi asosan musulmon davlatlar va urf-odatlarini yuqori o'rinda qo'yuvchi davlatlar kiradi.

Musulmon davlatlar huquqi kabi ayrim tushunchalar shu huquq oilasi ya'ni shariat huquq oilasida shakllanib borib hozirgi kunda qaror topdi deb ayta olamiz. Bu huquq oilasi asosan arab dunyosi va Eron davlatlarida shakllangan hisoblanadi ya'ni ko'zga tashlanadigan huquq oilalaridan biri hind huquq oilasidir. Uzoq davrlarga borib tarqaluvchi oila bo'lgan bu iolada asosan qadriyatlarga ustun turgan kasta varna kabi tabaqalarning ajralishi ham qisman

bu tizimga ta'sir qilgan .Asosan Rimda hm bu normalar ancha oldin bo'lgan ammo yillar o'tib yo'qolib bordi lekin Hindistonda bu shakllanib huquqiy rasmiylashtirildi ham va shu oilaning asosini tashkil qildi.Biz Afrika qit'a huquq tizimiga ham qisqacha to'xtalamiz mustahkamlaka tizimi barham topishidan shakllanib yangi huquq eski diniy huquqiy bilan uyg'unlashib ketdi.Deyarli siz bilan barcha davlatlar huquqiy tizimi va oilasi bilan tnishib ularda taqqoslaydigan bo'lsak mamlakatimiz huquq tizimida kodekslar va qonunlar borligi ancha yaxshi. O'zbekiston amaldagi huquq oilasi roman-german tizimida ko'pchilikning fikrlari asosida qonun va kodekslar qabul qiladi.Ingliz-amerika huquq oilasida sud amaliyoti o'rni katta bo'lsada ma;lum cheklovlar bor.SHaxs hayotini shaxs hal qilishi turli jamiyatdagi tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.Aslini olganda o'zbekiston musulmon davlat ammo biz dunyoviy va huquqqa tayanuvchi davlatmiz.Biz mustaqil bo'lganimizda o'zbekistonni dunyoviy davlat deb e;lon qilganmiz shunday ekan shariat qoidlari hukmron bo'lgan oilaga kirmaymiz bu oilada inson erkinligi taminlanavermaydi.O'zbekiston tarixiga nazar tashlar ekanmiz biz sovet davlati tarkibida bo'lganmiz o'z davrida sovet davlati ning ham totalitar huquq oilasi shakllandi va biz ham istaymizmi yo'qmi shu oilaga kirdik. Bu oila ham roman-german oilaga o'xshash biroq totalitar tuzum huquqiy tizimida tor normativ tushunchalar hukmron edi.Xususiy huquq har doim o'z o'rnini ommaviy huquq bo'shatib berardi.Buyruq, amri-farmon berish xususiyatiga ega bo'lib davlat siyosati bilan chambarchas bog'lanib ketgandi va huquqni muhofaza etish organlari ning majburlov kuchi bilan taminlanardi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda qonun hujjatlari yangilanyapti va qonun ustuvorligi shaxsning huquq va erkinliklariga ta'minlash olib borilyapti.Asosan sud hokimiyatida o'zgarishlar olib borilyapti 2017-yida 12-apreldan sud tizimi yangilandi. Prezidentimizning OLIY MAJLISga murojatnomasida shu jihatni e'tiborga oling so'nggi 4 yilda sud-huquq tizimi isloh qilish muhim qadamlar tashlandi .Mazkur sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish borasida 40 qonun qabul qildik. Bu mavzu haqida biz Yangi O'zbekiston strategiyasida ham bilishimiz mumkin.Qisqacha qilar ekanmiz hozirda inson huquqlari rivojlangan davrda huquq tizimining o'rni beqiyosdir. Biz qabul qilayotgan qonun lar barchasi inson manfaatlariga ishlashi zarur.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

SHavkat Mirziyoyev ning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2020 yil 31 dekabr

LEX.UZ. sayti malumotlari

Z.ISLOMOV. Davlat va huquq nazariyasi .Toshkent 2007. 843-bet